“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Migratsiyani xalqaro huquqiy tartibga solishning universal va mintaqaviy mexanizmlari

Alisher Yesemuratov,
O‘zbekiston Respublikasi Huauqni muhofaza qilish akademiyasi
dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: alisheresemueqtov@gmail.com

Аннотация. Maqolada migratsiyani xalqaro-huquqiy tartibga solishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Universal darajada Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti doirasidagi hujjatlar, shuningdek Yevropa, Amerika qit’asi, Afrika va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari misolida mintaqaviy huquqiy modellar o‘rganilgan. Qochoqlar, mehnat va ekologik migrantlar huquqlarini himoya qilish masalalari, shuningdek migrantlar kontrabandasiga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida zamonaviy xalqaro huquqda migratsiyani tartibga solishning yagona universal modeli mavjud emasligi asoslangan, mintaqaviy shartnomalarning milliy qonunchilikka ta’siri ochib berilgan va migrantlar huquqlarini himoya qilishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. migratsiya, xalqaro huquq, qochoqlar, mehnat migrantlari, inson huquqlari, mintaqaviy mexanizmlar

Аннотация. В статье рассматриваются современные международно-правовые механизмы регулирования миграции. Анализируются универсальные документы Организации Объединённых Наций и Международной организации труда, а также региональные модели на примере Европы, американского континента, Африки и государств Содружества Независимых Государств. Исследуются вопросы защиты прав беженцев, трудовых и экологических мигрантов, а также международно-правовые основы противодействия незаконному ввозу мигрантов. По результатам исследования обосновывается отсутствие единой универсальной модели регулирования миграции в современном международном праве, раскрывается влияние региональных международных договоров на национальное законодательство и формулируются предложения по укреплению международного сотрудничества в защите прав мигрантов.

Ключевые слова. миграция, международное право, беженцы, трудовые мигранты, права человека, региональные механизмы

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. The article analyzes contemporary international legal mechanisms for regulating migration. It examines universal instruments adopted within the United Nations and the International Labour Organization, as well as regional legal models drawn from Europe, the American continent, Africa and the Commonwealth of Independent States. The protection of the rights of refugees, labor and environmental migrants is studied, together with the international legal framework for combating the smuggling of migrants. The study substantiates the absence of a single universal model for regulating migration in contemporary international law, reveals the influence of regional treaties on national legislation, and formulates proposals for strengthening international cooperation in protecting migrants' rights.

Keywords. migration, international law, refugees, labor migrants, human rights, regional mechanisms

Globallashuv, qurolli mojarolar, iqtisodiy notenglik va ekologik inqirozlar sharoitida xalqaro migratsiya zamonaviy xalqaro huquqning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Davlatlar o‘rtasida aholi harakatining ortishi inson huquqlarini himoya qilish, milliy xavfsizlikni ta’minlash va xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish masalalarini o‘rtaga qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, migratsiyani xalqaro-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilish, ularning universal va mintaqaviy xususiyatlarini ochib berish hamda inson huquqlariga yo‘naltirilgan yondashuvlarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus huquqiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, dialektik tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy metod, normativ-huquqiy tahlil, shuningdek, institutsional va funksional yondashuvlar qo‘llandi. Universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar, BMT va XMT hujjatlari, shuningdek, turli mintaqalar amaliyoti o‘zaro taqqoslanib, migratsiyani tartibga solishning huquqiy mexanizmlari kompleks tarzda o‘rganildi.

BMT tizimida mehnat migrantlari bo‘yicha maxsus qo‘mita mavjud bo‘lib, u 1990-yildagi Konvensiyaning bajarilishini kuzatib boradi. Bu qo‘mita ishtirokchi davlatlarning hisobotlarini qabul qiladi va konvensiya normalariga rioya qilishni ta’minlash uchun ularga umumiy tavsiyalar beradi[1].

Qonuniy va noqonuniy mehnat migrantlarining huquqlarini tenglashtirish ko‘p davlatlar uchun asosiy ustuvor vazifa emas. 1990-yilgi konvensiya har bir mehnat migranti uchun teng imkoniyatlar prinsipini belgilagan bo‘lsa-da, ko‘plab davlatlar bu qoidalarni ratifikatsiya qilmagan. Barcha xodimlarga, irqi, millati, dini yoki fuqaroligidan qat’i nazar, teng munosabatda bo‘lish muhimdir. Mehnat migratsiyasida tenglik prinsipi xalqaro hamkorlikning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Ko‘pgina qabul qiluvchi davlatlar o‘z konstitutsiyaviy, mehnat va ijtimoiy qonunlarida xorijiy fuqarolarga nisbatan kamsitishni taqiqlash orqali bu prinsipni mustahkamlab qo‘yishgan.

BMTning 2000-yil 15-noyabrdagi Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi va uni to‘ldiruvchi Migrantlarni quruqlik, havo va dengizda noqonuniy tarzda olib o‘tishga qarshi qo‘shimcha protokoli, migratsiyani tartibga solishda muhim ahamiyatga ega[2]. Migratsiyaning amaliyoti shundayki, uning ta’siri har doim ijobiy bo‘lmaydi: migrantlar

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

kontrabandachilar va odam savdogarlari tomonidan ekspluatatsiya qilinadi, zo‘ravonlikka uchraydi va hatto o‘ldiriladi. Bundan tashqari, madaniy va diniy ziddiyatlar tufayli ksenofobiya, irqchilik va diskriminatsiya kuchayadi. Bunday zararli hodisalarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik muhimdir[3].

Migrantlar kontrabandasiga qarshi kurashishga tayyor barcha davlatlar ushbu Konvensiya va Protokolga qo‘shilishi zarur. Protokolda migrantlar kontrabandasi ularni noqonuniy yo‘l bilan davlat hududiga kiritish orqali moliyaviy yoki boshqa moddiy manfaat olib kirishi tushuniladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, migrantlar kontrabandasi va unga bog‘liq faoliyatni jinoiy deb hisoblash faqat moliyaviy yoki boshqa moddiy manfaatlar olishdan manfaatdor bo‘lgan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladi. Migrantlar kontrabandasi protokolida ta’kidlanishicha, bunday jinoiy javobgarlik migrantlarni notijorat sabablarga ko‘ra noqonuniy olib o‘tishga yordam beradigan oila a’zolari, nodavlat yoki diniy guruhlar kabi shaxslar va tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilmasligi lozim.

Shuningdek, Migrantlar kontrabandasi protokoli uchta asosiy maqsadni ko‘zlaydi:

1. Migrantlar kontrabandasining oldini olish va unga qarshi kurashish.
2. Noqonuniy migrantlarning huquqlarini himoya qilish.
3. Ushbu maqsadlarga erishishda ishtirokchi davlatlar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantirish.

Bizningcha, xalqaro miqyosda migratsiya muammolarini hal qilishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur. Ayniqsa, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ayollar va bolalarni muhofaza qilish kabi mavjud mexanizmlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishini ta’kidlasak, migratsiya masalalari samarali hal etiladi, deb o‘ylaymiz.

Odil sudlovga to‘sqinlik qilish, korrupsiya, uyushgan jinoiy guruhlar faoliyati va jinoiy daromadlarni legallashtirish kabi jinoyatlar ko‘pincha migrantlarning noqonuniy yo‘llar bilan olib o‘tilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Shuningdek, har bir davlat o‘zining kontrabandaga qarshi qonunlarini milliy konstitutsiyaviy prinsiplar, huquqiy tizim asoslari va mavjud huquqiy mexanizmlariga mos ravishda ishlab chiqishi muhim ahamiyatga ega[4].

Bizningcha, amaldagi Protokol migrantlar kontrabandasi bilan bog‘liq barcha muammolarni, ayniqsa, migrantlarni havo va quruqlik orqali noqonuniy tashish masalalarini to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli, migrantlarni noqonuniy tashishning barcha shakllarini tartibga soladigan, ularning huquqlarini himoya qiluvchi va jabr ko‘rganlarga yordam berish choralarini ichiga oladigan to‘liq xalqaro hujjat yaratish zarur.

Shu asosda, migratsiyani xalqaro huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ko‘rib chiqar ekanmiz, quyidagi xulosalarni berish mumkin:

1. Mehnat migrantlarining xalqaro huquqiy maqomini aniqlash uchun ixtiyoriy migratsiya masalalariga davlatlarning bir xil yondashuvi qo‘llanadi. Biroq xalqaro huquqda ixtiyoriy migratsiyaning yagona tasnifi yo‘q, shuning uchun uning iqtisodiy, oilaviy va ta’lim bilan bog‘liq turlari universal darajada tartibga solinmagan. Chet el fuqarolari maqomi va ularga taqdim etiladigan huquqlar ko‘proq qabul qiluvchi davlatlarning milliy qonunchiligi bilan aniqlanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

2. Chet el fuqarolarining qabul qiluvchi davlatdagi maqomini xalqaro huquqiy tartibga solishning asosi sifatida 1966-yildagi Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro paktlar xizmat qiladi.

3. Mehnat migratsiyasini xalqaro huquqiy tartibga solish keng ko‘lamli bo‘lib, u mehnat resurslarini almashinuvida ishtirok etuvchi davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatdorlikka asoslangan. Bu tartib BMTning Mehnat migrantlari va ularning oila a’zolarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyasi bilan ta’minlanadi.

4. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar mehnat migrantlarini tasniflash va ularning alohida guruhlariga qo‘shimcha imtiyozlar berishda umumiy tendensiyalarga amal qilishadi. Bu, xususan, yuqori malakali mutaxassislar va past malakali ishchilar o‘rtasidagi huquqiy maqomdagi tafovutlarga olib keladi.

Shu tariqa, xalqaro huquqiy mexanizmlar tahlili migratsiya masalasini mintaqaviy darajada ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. A. Yastrebovaning ta’kidlashicha, migratsiya jarayonlarining xususiyatlari va ularning aloqalari iqtisod, sotsiologiya, siyosatshunoslik va demografiya fanlarida o‘rganilsa-da, huquqshunoslik xalqaro huquqiy mexanizmlarni muayyan geosiyosiy mintaqalarda tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratgan. Ushbu mexanizmlar milliy huquqiy an’analar va migrantlarni qabul qilish amaliyotlariga bog‘liq bo‘lib, keyinchalik ular mintaqaviy xalqaro shartnomalar va urf-odatlarda aks etadi[5]. L. Mingazov fikricha, sivilizatsiyaning xususiyatlari va an’analari nafaqat inson huquqlarining mohiyatini belgilashga, balki ularning amalda qo‘llanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi[6].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki Afrikada majburiy migratsiyani tartibga soluvchi mintaqaviy Afrika xalqaro huquqiy mexanizmi shakllangan. Uning tarkibiy qismi 2009-yilda Afrika ittifoqi doirasida qabul qilingan ichki ko‘chirilgan shaxslarni himoya qilish bo‘yicha Kampala konvensiyasidir[7].

Xalqaro huquqdagi integratsiya munosabatlarini tahlil qilar ekanmiz, umumjahon va milliy tartibga solish o‘rtasidagi farqni inobatga olib, mintaqaviy huquq ushbu muammolarni yumshatishga xizmat qilishi lozimligini qayd etish joiz[8]. S. Glotov va V. Mazayevning fikricha, inson huquqlari bo‘yicha mintaqaviy standartlar o‘z xususiyatlari bilan an’anaviy va umumiy qoidalardan farq qilib, rivojlanish darajasidan kelib chiqadigan o‘zgacha, o‘ziga xos va kengroq bo‘lishi mumkin[9].

Fikrimizcha, zamonaviy xalqaro huquqda migratsiyani tartibga soluvchi to‘liq shakllangan mintaqaviy mexanizmlar hanuz yo‘q. Mavjud mintaqaviy shartnomalar va deklaratsiyalar davlatlarning umumiy manfaatlari va ehtiyojlarini aks ettiradi. Har bir geosiyosiy mintaqada migratsiya jarayonlari turlari va ularning dolzarbligidan kelib chiqib, o‘ziga xos huquqiy yondashuvlar rivojlangan.

Xalqaro migratsiya hujjatlari, odatda, keyinchalik mintaqaviy shartnomalarga havola qilinadi. Bunga Lotin Amerikasi mamlakatlarida qo‘llanadigan diplomatik boshpana instituti misol bo‘la oladi. Migratsiya bo‘yicha umuminsoniy va mintaqaviy normalar o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solish predmetidan kelib chiqadi.

Mintaqaviy huquqiy mexanizmlarning o‘zaro ta’siri ham mavjud. Bir mintaqa davlatlarining huquqiy tizimlari xalqaro huquqiy tartibga solishga ta’sir qiladi. Masalan, 1995-yilda Shengen kelishuvlari kuchga kirgach, Yevropa ittifoqiga a’zo davlatlar migratsiya qonunchiligiga o‘zgartishlar kiritib, chet

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

elliklarni qabul qilishni cheklashga harakat qildilar. Bu choralar Sharqiy Yevropa, MDH va Boltiqbo‘yi davlatlariga migratsiyaning oshishiga sabab bo‘ldi[10].

MDHning mintaqaviy huquqiy tizimi migratsiyani tartibga solishda 1990-yilda qochoqlar va majburiy migrantlarga yordam berish to‘g‘risida va 2008-yilda MDH doirasida mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari maqomi to‘g‘risida Konvensiya qabul qilindi.

Har bir mintaqadagi migratsiya jarayonlari ta’sir qilib, global migratsiya manzarasini shakllantiradi. O. Xlestov mintaqaviy tizimlar inson huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan, bu esa umumiy tizimni to‘ldiradi[11]. I. Shesteryakova mintaqaviy birlashmalarning rivojlanishi mehnat standartlarini kengaytirishga zamin yaratganini ta’kidlaydi[12].

Mintaqaviy tizimlarning o‘zaro ta’siri bir geosiyosiy makondan ikkinchisiga migrantlar oqimini tartibga soluvchi hamkorlikni anglatadi. Bu ikki tomonlama yoki mintaqalararo shartnomalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, 2012-yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi Readmissiya to‘g‘risidagi bitim[13] yoki Argentina va Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi mehnat migrantlarining ijtimoiy ta’minotiga oid shartnomalar shular jumlasidandir. Ushbu kelishuvlar mintaqaviy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turli mintaqaviy huquqiy mexanizmlar migratsiyani tartibga solishda o‘zaro ta’sir qilmoqda. Hozirgi kunda majburiy ko‘chirilgan shaxslarni readmissiya va remigratsiya qilish bo‘yicha mintaqalararo hamkorlik shakllanmoqda va bu ko‘p tomonlama shartnomalarga yo‘l ochadi.

Yevropa doktrinasida boshpana olish huquqi insonning tabiiy huquqlaridan biri sifatida ko‘rilib, asosiy erkinlik va xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan. Yevropa Kengashi qonunlarida mustahkamlangani bilan birga, migratsiyani tartibga soluvchi mintaqaviy mexanizmlar Yevropa ittifoqi qonunchiligida ham mavjud. M. Biryukov ham Yevropa ittifoqi huquqining xalqaro huquq bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi[14].

Fikrimizcha, Yevropa ittifoqining ta’sis shartnomalari a’zo davlatlar uchun tashqi migratsiyani tartibga solishni ittifoqning integratsiyasiga oid muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Hozirgi kunda Yevropa ittifoqining majburiy migratsiya siyosati inqirozga yuz tutayotgani, chunki Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadan kelayotgan migrantlarni qabul qilishda har bir a’zo davlat o‘zining milliy manfaatlariga muvofiq qaror qabul qilmoqda.

Yevropa ittifoqida majburiy migratsiyani tartibga solishning asosiy bosqichlaridan biri Shengen hududidagi immigratsiya qoidalarini mustahkamlash bilan bog‘liqdir. Bu yondashuv, bir tomondan, xorijliklarning Yevropa ittifoqiga kirishini cheklaydi, biroq majburiy migratsiyaning ob’yektiv sabablari mavjud bo‘lganda, bunday cheklovlar amalga oshirilishini to‘xtata olmaydi. Migratsiya oqimlari shunchaki geografik yo‘nalishini o‘zgartiradi. Bizningcha, majburiy migratsiya mintaqaviy huquqiy tizimlarni birlashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Bu migratsiya davlatlarga ta’sir qilib, ularning vaqtincha yoki doimiy ravishda migrantlarni qabul qilishga tayyorligiga bog‘liq.

Yevropa ittifoqi uchun migratsiyani tartibga solish masalalari tashqi siyosat va xavfsizlik bilan birlashtirilgan vakolatlarni talab etadi. Majburiy migrantlarning kelib chiqish davlatlarida inson huquqlarining qo‘pol buzilishi

yoki qurolli mojarolar borligi xavfli bo‘lishini ko‘rsatadi.

Yevropa ittifoqining umumiy migratsiya siyosati qochoqlar va boshpana izlovchilarni qabul qilishda mintaqaviy xalqaro huquqiy normalarga ustunlik bergan. Bu mintaqaviy mexanizm a’zo davlatlar uchun umumiy boshpana tizimini yaratish majburiyati orqali amalga oshiriladi.

Janubiy Amerika misolida migratsiyaning mintaqaviy xususiyatlarini ko‘rib chiqsak, bu yerda Argentina, Braziliya va Venesuela muhim rol o‘ynaydi. Ular urushdan keyingi Yevropa migrantlarini qabul qilgan va Chilining iqtisodiy rivojlanishi ham uni jozibador migratsiya makoniga aylantirmoqda. Bu mintaqada umumiy til (ispancha) migratsiya oqimlariga ta’sir etmoqda. Xalqaro migratsiya bo‘yicha Global guruh hisobotiga ko‘ra, ko‘plab odamlar rivojlanayotgan davlatlardan boshqalariga ko‘chib o‘tmoqda[15]. Markaziy Amerika, And mintaqasi va “Janubiy konus”dagi migratsiya yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, Argentina 2000-yillarda Boliviya, Peru va Paragvaydan noqonuniy migrantlarning maqomini ikki tomonlama shartnomalar orqali tartibga soldi. Braziliya esa Argentina, Urugvay, Chili va Paragvaydan migrantlarni qabul qilmoqda[16].

Hozirgi kunda Panamerika mintaqasida davlatlararo migratsiya manzarasi juda xilma-xil bo‘lib, bu xalqaro huquqiy tartibga solish mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Bu yerda Shimoliy va Janubiy Amerika mintaqalarini ajratish orqali majburiy migratsiyani tartibga soluvchi yagona yondashuvlarni yaratishga qaratilgan mintaqaviy huquqiy hujjatlar mavjud. Bu hujjatlar orasida 1984-yilda Markaziy Amerika, Meksika va Panamada qochoqlarni xalqaro himoya qilish bo‘yicha Kartagena deklaratsiyasi alohida o‘rin tutadi[17].

Shuningdek, 1969-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasi boshpana huquqiga xos o‘ziga xos qoidalarni ichiga oladi. Uning 22-moddasida har bir shaxs siyosiy yoki shu kabi jinoyatlarda ayblanganda, xalqaro konvensiyalar va davlat qonunlariga muvofiq boshpana izlash va olish huquqiga egaligi belgilangan. Bu qoidadan kelib chiqilsa, Kartagena deklaratsiyasi va Amerika konvensiyasi mintaqaviy tartibga solish tizimida davlatlarning boshpana berish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqi birinchi o‘rinda turadi, xalqaro huquq normalari esa ikkinchi o‘rinda.

Amerikalararo boshpana doktrinasi siyosiy qochoqlarga taqdim etiluvchi himoyaga asoslanib, chet el fuqarosini o‘z davlatiga ekstraditsiya qilishni taqiqlaydi[18]. N.G. Doronina Lotin Amerikasi xalqaro huquq tizimining o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalar ekan, Lotin Amerikasi mamlakatlarida xalqaro huquq normalari milliy huquqlarga integratsiya qilinib, ularga konstitutsiyaviy qonunlar maqomi beriladi. Bu yondashuv milliy qonunchilik rivojini belgilaydigan umumiy huquqiy prinsiplarni mustahkamlaydi[19]. Hatto mamlakatlar o‘rtasidagi huquqiy tafovutlar ham birlashishga qarshi emas. Amerika davlatlari tashkilotining tuzilishi romano-german (Lotin Amerikasi) va anglo-sakson (AQSH, Kanada) huquqiy tizimlarini yaqinlashtirishga hissa qo‘shgan[20]. Bu jarayon turli huquqiy an’analarning birlashuviga va majburiy migratsiyani mintaqaviy tartibga solishning o‘ziga xos mexanizmlarini yaratishga olib keldi.

1984-yilgi Kartagena deklaratsiyasi mintaqaviy majburiy migratsiyani tartibga solish bo‘yicha umumiy prinsiplarni belgilab berdi. Ishtirokchi davlatlar o‘z milliy boshpana qonunchiligida ushbu qoidalardan foydalanishlari tavsiya

etiladi. Siyosiy qochoqlarni ekstraditsiya qilmaslik prinsipi 1969-yilgi Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasi bilan mustahkamlangan.

Amerikalararo majburiy migratsiyani tartibga solish mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, qochoqlar va boshpana izlovchilarning maqomi bo‘yicha yagona mintaqaviy shartnoma mavjud emas. 1954-yilda qabul qilingan Karakas konvensiyasi boshpana institutini faqat qabul qiluvchi davlat huquqi sifatida ko‘radi. Karakas konvensiyasining 7-moddasida so‘z erkinligi boshqa davlat tomonidan shikoyat qilish asosi bo‘la olmasligi, 8-moddada esa boshqa davlatdan qochoqlarning uyushmalar huquqlarini cheklashni talab qilish mumkin emasligi qayd etilgan. Shuningdek, boshpana bergan davlat ushbu shaxslarni boshqa davlatga bermaslik huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Bu qoidalar qochoqlar huquqlarini cheklaydi va ularning himoyasi qabul qiluvchi davlatga bog‘liq. Qochoqlarning maxsus xalqaro huquqiy maqomi va inson huquqlari bo‘yicha minimal standartlar hali ham to‘liq tartibga solinmagan.

G. Gudvin-Gill 1950-yilda Xalqaro huquq instituti tomonidan qabul qilingan boshpana ta’rifini keltiradi, bu davlatning o‘z hududida yoki nazorati ostidagi boshqa hududda ta’minlaydigan himoyasiga ishora qiladi[21].

Amerikalararo mintaqada majburiy migratsiyani tartibga solish bo‘yicha mintaqaviy xalqaro huquqiy mexanizmlar tahlili quyidagilarni ko‘rsatadi:

Birinchidan, Amerika qit’asi mamlakatlari uchun asosiy yondashuv 1969-yildagi Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasida chet el fuqarolarining siyosiy ta’qibdan boshpana olish huquqini tan olishdir. Siyosiy sabablarga ko‘ra ta’qib qilingan shaxslarni ekstraditsiya qilishdan istisno qiluvchi ko‘p yillik ta’limot hali ham boshpana institutining nazariy asosi hisoblanadi.

Ikkinchidan, hududiy va diplomatik boshpanani tartibga solish Lotin Amerikasi va Karib mintaqasining bir qator davlatlari tomonidan 1954-yilgi ikki Karakas konvensiyasi orqali amalga oshiriladi. Panamerika mintaqasi davlatlari, jumladan AQSH, Kanada, Meksika, Argentina va Chili, 1951-yildagi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya yoki uning Protokolida qatnashgan.

Uchinchidan, Amerikalararo mintaqaviy mexanizm boshpana izlovchilarning huquqlarini davlatlararo munosabatlar tizimi orqali belgilaydi, bunda qabul qiluvchi davlatning suvereniteti birinchi o‘rinda turadi. Diplomatik boshpana tushunchasi himoyani vaqtinchalik ekstraterritorial mexanizm orqali amalga oshiradi, bu an’anaviy ravishda mintaqa siyosiy vaziyatiga bog‘liqdir.

To‘rtinchidan, diplomatik boshpana institutidan foydalanish faqat 1954-yilgi Karakas konvensiyasiga a’zo davlatlar o‘rtasida amalga oshiriladi va bu Vena konvensiyasiga a’zo boshqa davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikka ta’sir qilmaydi.

MDH mamlakatlariga kelsak, qochoqlar to‘g‘risidagi ko‘plab milliy qonunlar 1951-yilgi Konvensiya asosida ishlab chiqilgan. Tojikistonning 1999-yilda qabul qilingan “Migratsiya to‘g‘risida”gi qonunida qochoqlar va majburiy migrantlarga alohida ta’rif berilgan[22]. O‘zbekiston 1951-yilgi konvensiyaga a’zo emas va boshpana berish bo‘yicha alohida qonunchilikka ega emas, biroq BMTning Qochoqlar bo‘yicha Oliy komissarligi bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bu holat mamlakatning milliy xavfsizlik ustuvorligi va Afg‘oniston bilan

umumiy chegarasi borligi bilan bog‘liq.

MDH mamlakatlari qochoklarga nisbatan qaytarib yubormaslik va ekstraditsiya qilmaslik prinsipini qo‘llaydi, hatto shaxs qochoq maqomiga ega bo‘lmagan taqdirda ham, agar uning hayotiga xavf tug‘sa, uni jo‘natmaslik haqida qaror qabul qilinadi.

Mintaqaviy migratsiyani xalqaro huquqiy tartibga solish natijalarini milliy qonunchilik va mintaqaviy xalqaro huquqiy asoslar o‘zaro ta’sir qilib, davlatlar xalqaro shartnomalarni ishlab chiqishga yoki maxsus migratsiya qonunchiligini shakllantirishga imkon yaratadi va qochoqlar va boshpana izlovchilarning maqomini batafsil tartibga solish Yevropada amalga oshiriladi va bu a’zo davlatlar o‘rtasidagi ichki ishlar va adliya sohasidagi hamkorlik chegarasida ishlatilgan.

Uchinchi navbatda, Yevropa kengashi qonunchiligi boshpana izlovchilarning huquqlarini nazorat qilish uchun umumiy mexanizmga ega bo‘lib, bu inson huquqlari bo‘yicha mintaqaviy standartlar asosida mustahkamlangan.

Shu tariqa, bugungi kunda universal modelning yo‘qligi va migratsiya huquqining mintaqaviy xususiyatlari mavjudligini ta’kidlashimiz mumkin. Ayniqsa, “qochoq” va “migrant” tushunchalarini kengaytirish zarurati hamda migrantlar huquqlarini himoya qilishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati dolzarb sanaladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy xalqaro huquqda migratsiyani tartibga solishning yagona universal modeli mavjud emas. Mavjud mexanizmlar mintaqaviy xususiyatlarga ega bo‘lib, davlatlarning tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillari bilan belgilanadi. Qochoqlar, mehnat va ekologik migrantlar huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro normalarni takomillashtirish, ularni milliy qonunchilikka samarali implementatsiya qilish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Migratsiya sohasida inson huquqlariga asoslangan yondashuv xalqaro huquqning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бекяшев Д.К., Иванов Д.В. Международно-правовое регулирование вынужденной и трудовой миграции. М.: Проспект, 2020. 392 с. (Bekyashev D.K., Ivanov D.V. International Legal Regulation of Forced and Labour Migration. Moscow: Prospekt Publishing House, 2020. 392 p.)

2. Конвенция Организации Объединённых Наций против транснациональной организованной преступности от 15 ноября 2000 года и дополняющий её Протокол против незаконного ввоза мигрантов по суше, морю и воздуху. https://lex.uz/docs/1304566 (дата обращения: 25.09.2024). (United Nations Convention against Transnational Organized Crime of 15 November 2000 and the Protocol thereto against the Smuggling of Migrants by Land, Sea and Air.)

3. Сборник методических пособий по борьбе с незаконным ввозом мигрантов. Управление Организации Объединённых Наций по наркотикам и преступности. http://www.refworld.org.ru/pdfid/52eb59784.pdf (Compilation of Methodological Guides to Combat the Smuggling of Migrants. United Nations Office on Drugs and Crime.)

4. Лукашук И.И. Международное право. Общая часть: учебник для студентов юридических факультетов и вузов. М.: Wolters Kluwer Russia,

2010. С. 213. (Lukashuk I.I. International Law. General Part: a textbook for law students. Moscow: Wolters Kluwer Russia, 2010. P. 213.)

5. Ястребова А.Ю. Международно-правовые механизмы регулирования миграции: доктринальные подходы и опыт Российской Федерации: дисс. … д.ю.н.: 12.00.10. М.: Дипломатическая академия Министерства иностранных дел РФ, 2017. 580 с. (Yastrebova A.Yu. International Legal Mechanisms of Migration Regulation: Doctrinal Approaches and the Experience of the Russian Federation: Doctor of Law dissertation. Moscow: Diplomatic Academy of the Ministry of Foreign Affairs of the Russian Federation, 2017. 580 p.)

6. Мингазов Л.Х. Универсализм прав человека и культурное многообразие мира // Учёные записки Казанского государственного университета. Т. 150. Серия «Гуманитарные науки». Кн. 5. Казань, 2008. С. 67. (Mingazov L.Kh. Universalism of Human Rights and the Cultural Diversity of the World // Scientific Notes of Kazan State University. Vol. 150. Humanities Series. Book 5. Kazan, 2008. P. 67.)

7. Ўша манба (Мингазов Л.Х. Универсализм прав человека и культурное многообразие мира). (Ibid.)

8. Смирнова Е.С. Глобализация как правовое понятие (к постановке проблемы). 3-е изд., доп. М., 2009. С. 29. (Smirnova E.S. Globalization as a Legal Concept (Towards the Formulation of the Problem). 3rd ed. Moscow, 2009. P. 29.)

9. Глотов С.А., Мазаев В.Д. Современная концепция прав человека в принципах и нормах Совета Европы. М.: Институт национальной стратегии реформ, 2001. С. 30–31. (Glotov S.A., Mazaev V.D. The Modern Concept of Human Rights in the Principles and Norms of the Council of Europe. Moscow: Institute of National Strategy for Reforms, 2001. P. 30–31.)

10. Миграция населения. Вып. 4: Система иммиграционного контроля / под общ. ред. О.Д. Воробьёвой. М., 2001. С. 28–29. (Population Migration. Issue 4: The Immigration Control System / ed. by O.D. Vorobyova. Moscow, 2001. P. 28–29.)

11. Хлестов О.Н. ООН и актуальные проблемы защиты прав человека // Международное право: Вестник Дипломатической академии МИД России. М., 2013. С. 21. (Khlestov O.N. The United Nations and Current Problems of Human Rights Protection // International Law: Bulletin of the Diplomatic Academy of the Russian Ministry of Foreign Affairs. Moscow, 2013. P. 21.)

12. Шестерякова И.В. Международные трудовые нормы и трудовое право России: их соотношение и коллизии. Саратов, 2013. С. 283. (Shesteryakova I.V. International Labour Standards and Russian Labour Law: Their Correlation and Conflicts. Saratov, 2013. P. 283.)

13. Соглашение между Правительством Республики Узбекистан и Правительством Республики Казахстан «О реадмиссии лиц», г. Астана, 7 сентября 2012 года. https://lex.uz/docs/2659242 (дата обращения: 24.09.2024). (Agreement between the Government of the Republic of Uzbekistan and the Government of the Republic of Kazakhstan on the Readmission of Persons, Astana, 7 September 2012.)

14. Бирюков М.М. Европейское право до и после Лиссабонского договора. М., 2009. С. 81. (Biryukov M.M. European Law Before and After the Treaty of Lisbon. Moscow, 2009. P. 81.)

15. Миграция во взаимосвязанном мире: новые направления деятельности: доклад Глобальной комиссии по международной миграции. С. 6. (Migration in an Interconnected World: New Directions for Action: Report of the Global Commission on International Migration. P. 6.)

16. World Migration 2003. Managing Migration Challenges and Responses for People on the Move. Vol. 2. Geneva: IOM, 2003. P. 32.

17. Cartagena Declaration on Refugees, adopted by the Colloquium on the International Protection of Refugees in Central America, Mexico and Panama, held in Cartagena, Colombia, 19–22 November 1984. URL: http://www.oas.org/dil/1984_cartagena_declaration_on_refugees.pdf (дата обращения: 10.11.2025).

18. Левин Д.Б. Право убежища: дис. ... канд. юрид. наук. М., 1940; Мокринский С.П. Политическое преступление в международных договорах о выдаче преступников // Международная жизнь. 1924. № 2/3. С. 105–126; Шибаева Е.А. Проблема права убежища в международном праве: дис. ... канд. юрид. наук. М., 1953. (Levin D.B. The Right of Asylum: Candidate of Law dissertation. Moscow, 1940; Mokrinsky S.P. Political Crime in International Extradition Treaties // International Life. 1924. No. 2/3. P. 105–126; Shibaeva E.A. The Problem of the Right of Asylum in International Law: Candidate of Law dissertation. Moscow, 1953.)

19. Доронина Н.Г. Унификация права стран Латинской Америки // Законодательство и экономика. 2002. № 10. https://base.garant.ru/4062337/ (дата обращения: 10.08.2025). (Doronina N.G. Unification of the Law of the Latin American Countries // Legislation and Economics. 2002. No. 10.)

20. Нормотворческая юридическая техника / под ред. Н.А. Власенко. М.: Институт сравнительного законодательства и правоведения при Правительстве РФ, 2013. http://www.base.garant.ru (дата обращения: 10.08.2025). (Legislative Drafting Technique / ed. by N.A. Vlasenko. Moscow: Institute of Comparative Legislation and Law under the Government of the Russian Federation, 2013.)

21. Ястребова А.Ю. Отдельные формы региональной международно-правовой регламентации института убежища // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 4, Государство и право: Реферативный журнал. 2023. № 2. (Yastrebova A.Yu. Certain Forms of Regional International Legal Regulation of the Institution of Asylum // Social Sciences and Humanities. Domestic and Foreign Literature. Series 4, State and Law: Abstract Journal. 2023. No. 2.)

22. Закон Республики Таджикистан «О миграции» от 11 декабря 1999 года № 881. http://www.migration.tj/index.php/ru/zakonodatelstvo/omigratio (дата обращения: 23.05.2025). (Law of the Republic of Tajikistan “On Migration” No. 881 of 11 December 1999.)